


18. Ayirish (50 – 22)

Yondosh mavzu:
Bahorgi yumushlar

Sondan yig'indini ayirish.



1. Misollarni namuna bo'yicha yeching.

Namuna:


$$50 - 26 = 50 - 20 - 6 = 30 - 6 = 24$$



50 – 23	40 – 13
60 – 46	70 – 17
90 – 64	50 – 45
80 – 57	90 – 32

2. Hasharda katta sinf o'quvchilari 40 ta terak ko'chatlari ekishi kerak edi. O'quvchilar oldin 20 ta, keyin yana 7 ta ko'chat ekishdi. Yana nechta ko'chat ekilishi kerak?

3. Ishlarning qaysi turi diagrammaning qaysi bo'lagiga mos keladi?
Qo'shnilar Navro'z bayrami arafasida hovlida hashar uyushtirishdi.



Oshxonada yordamlashdi – 25 qo'shni
Sumalak pishirdi – 12 qo'shni
Hovlini supurdi – 3 qo'shni
Daraxt ekdi – 25 qo'shni
Gul ekdi – 35 qo'shni

4. Tenglamalarni yeching.

$$x + 27 = 40$$

$$7 + z = 30$$

$$m - 58 = 12$$

$$70 - y = 36$$

$$b - 37 = 3$$

$$70 - n = 35$$



5. Hasharda 60 ta gul ko'chati ekildi. Ulardan 14 tasi rayhon ko'chati va 12 tasi binafsha ko'chati, qolganlari atirgul ko'chati. Nechta atirgul ko'chati ekilgan?



6. Masalaga doir ifoda tuzing va uning qiymatini hisoblang.

Yumshatish kerak	Yumshatildi	Qoldi
60 ta daraxt	26 va 12 ta daraxt	?



7. Misollarni yeching.

$$60 \text{ kg} - 29 \text{ kg}$$

$$80 \text{ cm} - 14 \text{ cm}$$

$$70 \text{ dm} - 38 \text{ dm}$$

$$90 \text{ l} - 45 \text{ l}$$

$$25 \text{ kg} + 15 \text{ kg}$$


$$64 \text{ cm} + 26 \text{ cm}$$

$$36 \text{ dm} + 34 \text{ dm}$$

$$67 \text{ l} + 13 \text{ l}$$



8. Chizma yordamida masala o'ylab toping va uni yeching.



9. Jadvaldan foydalanib misollar tuzing va ularni yeching.

a	0	5	10	12	18	28	31	45	56
$a + 12$									
$90 - a$									

Yondosh mavzu:
Men va tabiat

Tabiatda juda ko'plab boyliklar uchraydi. Bu ajoyib tabiat hodisalari, atrofimizdagi jonli mavjudotlar, jonsiz tabiat predmetlaridir. Biz bu boyliklarni o'rganishimiz, himoya qilishimiz va asrashimiz kerak.



1. Jadvalda so'z yashiringan.
Bu so'z nima?
O'rganilgan bo'limlardan foydalaning.

Sahifa	Vazifa	So'z	Harf
27	5	1	3
29	5	2	9
30	1	2	8
8	3	2	3
8	4	4	2
24	1	2	1



2. Tabiatda ko'plab qimmatbaho boyliklar bor. Tenglamaning ildizini toping va siz tabiatning muhim boyliklaridan biri nima ekanini bilib olasiz.

53	70	72	48	65	68
U	A	K	S	E	V





$$(5 + 5 + 1 + 1) + x = 60$$

$$a + (5 + 1 + 5 + 6) = 70$$

$$80 - k = 6 + 3 + 2 + 1$$



3. Ushbu shakllarning perimetrlarini toping. Hosil bo'lgan javoblar va unda yozilgan so'zlarni ikkita ustunga: toq va juft sonlar ustuniga taqsimlang. Ikki ustundagi so'zlar qanday bog'langan?



4. Ifodalarning qiymatini toping.

Y	$42 + 18$	O	$80 - 61$	R	$43 + 15$
N	$56 + 34$	Q	$20 - 15$	U	$93 - 21$
Ch	$23 + 17$	S	$80 - 72$	T	$55 + 24$
K	$35 + 15$	P	$60 - 27$	M	$68 - 42$
Sh	$19 + 11$	A	$70 - 43$	V	$100 - 90$

Yashiringan so'zlarni toping:

a) 50, 27, 33, 79, 27, 58;

b) 19, 5, 5, 72, 30;

d) 26, 27, 60, 90, 27;

e) 40, 72, 26, 40, 72, 5.

Ularni qanday umumiy so'z bilan birlashtirish mumkin?